



DAVLAT BOSHQARUVINING EVOLYUTSIYASI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Abdiquodirova Gavxaroy G'ulomjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
Huquqni sohalararo o'rganish fakulteti
Davlat va jamiyat boshqaruvi yo'nalishi talabasi
Email: abduquodirova.g@icloud.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20701590>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 13-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 15-iyun 2026 yil

KEY WORDS

Davlat boshqaruvi, evolyutsiya, an'anaviy byurokratiya, Yangi davlat boshqaruvi, Good Governance, elektron hukumat, ma'muriy islohotlar, Singapur tajribasi, O'zbekiston – 2030 strategiyasi, sun'iy intellekt, nomarkazlashtirish, parlamentarizm.

ABSTRACT

Ushbu maqolada davlat boshqaruvi tizimining vujudga kelishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning qiyosiy evolyutsiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotda Maks Veberning an'anaviy iyerarxik byurokratiya modeli va zamonaviy "Yangi davlat boshqaruvi", "Yaxshi boshqaruv" (Good Governance) hamda raqamli transformatsiya (e-hukumat) konsepsiyalari o'rtasidagi konseptual farqlar ochib berilgan. Shuningdek, Singapur kabi davlatlarning muvaffaqiyatli tajribasi va O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurash tizimi, "O'zbekiston – 2030" va sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyalari batafsil o'rganilgan. Maqola yakunida respublikamizda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, hokimiyatlar bo'linishi prinsipini mustahkamlash, mahalliy hokimliklarni nomarkazlashtirish va parlament tizimini isloh qilish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Yer yuzida odamlar paydo bo'lib, ular jamiyat tarzida birlashgunlarigacha juda uzoq tarixiy davrlarni bosib o'tgan. Tosh davrida odamlar yakka holda ma'lum maqsadlarga erisha olishmasliklarini anglagan holda dastlab urug'larga, keyin qabilalarga, qo'shni qabilalarning harbiy hujumlaridan saqlanish maqsadida esa qabilalar ittifoqi va harbiy ittifoqlarga birlasha boshlashdi va natijada jamiyatlar qaror topdi. Jamiyat – o'ta murakkab, ko'p qatlamli ijtimoiy tuzilma. U kishilarning oddiy jamlanmasi emas, balki umumiy ehtiyoj uchun moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, mahsulotlarni taqsimlash va ayirboshlash, iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan turli tuman mulkiy, iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy, huquqiy, oilaviy aloqalar, ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Jamiyat hayotining barcha yuqorida sanalgan sohalari bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqdir. Ularni boshqarish va rivojlantirishda davlat, partiyalar, turli jamoat tashkilotlari va o'zini o'zi boshqaruv organlari muhim rol o'ynaydi. Jamiyatning axloqiy-ma'naviy salohiyati, ijtimoiy-huquqiy saviyasiga muvofiq ravishda siyosiy boshqarish usuli shakllanadi va faoliyat yuritadi. Ushbu davrda asosan, sotsial normalarga – odat, axloq, din, etika, estetika kabi normalarga tayanilgan holda jamiyatlar boshqarilgan bo'lib, ibtidoiy

davrdagi sotsial normalar o'sha tarixiy davr sharoitining va ishlab chiqarish munosabatlarining mahsuli bo'lgan[1]. Keyinchalik jamiyatsdan davlat ajralib chiqdi, jamiyat va davlat nisbatini tavsiflagan holda aytish mumkinki, ta'rixiy ma'noda davlat paydo bo'lishi bilan jamiyat bamisoli ikki qismga – davlat va boshqa, ya'ni nodavlat sohaga ajralgandek bo'ladi, aynan shu ikkinchi qismni fuqarolik jamiyati deb atamoq lozim[2]. Ilk davlat miloddan avvalgi 4-mingyilliklarda dastlab Misr va Qadimgi Sharqda vujudga keldi. Davlat vujudga kelgandan keyin jamiyatni boshqarish, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan yuksalish uchun albatta hukmdorlarga kuchli davlat boshqaruvi kerak edi. O'zi umuman davlat boshqaruvi nima ekanligiga to'xtaladigan bo'lsak, davlat boshqaruvi tushunchasiga turlicha yondashish mumkin. Ko'pgina hollarda, davlat boshqaruvi qonun chiqarish va odil sudlov faoliyati doirasidan tashqarida bo'lgan davlat va davlat-hokimiyat subyektlarining faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda davlat boshqaruvi ijro hokimiyatini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladi. Ya'ni davlat boshqaruvi – boshqaruv subyekt (davlat, davlat organlari yoki mansabdor shaxslar)ning boshqaruv obyekt (jamiyat, fuqarolar)ga nisbatan hokimiyat ta'siri hisoblanadi[3]. Bundan tashqari davlat boshqaruviga hukumatning amaliy qismi, ya'ni hukumat maqsadlari va vazifalarini ro'yobga chiqarish vositasi sifatida ham qaraladi[4].

Asosiy qism. Qadimgi davrda davlat boshlig'i xudo darajasigacha ulug'langan, misol uchun, Qadimgi Misrda fir'avn hokimiyati ilohiyligi tamoyiliga asoslanib boshqarilgan, hattoki oddiy aholini qo'rqitish maqsadida, o'zlarining odam bo'yidan 5-6 marotaba baland haykallarini ibodatxonaga o'rnatishgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda davlat boshqaruvi qisman bo'lsa-da, demokratik holatda bo'lgan, masalan, senat, xalq majlisi, respublika faoliyat yuritgan. Uzoq Sharq mamlakatlari, jumladan Xitoyda esa Konfutsiy ta'limoti asosida boshqaruv tartib, itoat va axloqiy mas'uliyat tamoyillari asosida qurilgan.

O'rta asrlarda Yevropada monarxiyalar kuchayib, asosan markazlashtirish siyosatini olib borishga harakat qilishdi. Natijada kuchga tayanish, raqiblarni tor-mor keltirish, xalqni qo'rquvda ushlab turish holatlari kuchaydi. Bundan tashqari, Yevropada Rim papalari va kohinlarning obro'si kuchayib ketdi va kambag'al xalqdan yanada ko'p soliq va to'lovlarni talab qilishdi. Cherkovga qarshi borganlarni esa indulgensiya sudlari bilan jazolashdi. Ammo XVI asrda Uyg'onish davri boshlangandan keyin inson markazdagi qadriyat sifatida qaralish boshlandi va davlatni "ijtimoiy shartnoma" asosida tashkil etish g'oyalari shakllandi. (T.Gobbs, J.Lokk, Russo). Demak, avvallari davlat boshqaruvi ko'proq buyruq va nazorat asosida bo'lgan va bo'ysunmaganlar shavqatsiz jazolangan, ammo eng yangi davrdan boshlab, davlat boshqaruvi mazmuni tubdan o'zgardi, endi u fuqarolarga xizmat ko'rsatish, ochiqlik va samaradorlik tamoyillariga tayanadigan bo'ldi. Shu sababli davlat boshqaruvini "an'anaviy" va "zamonaviy" yondashuvlarga ajratib o'rganish qulay hisoblanadi. Chunki davlat boshqaruvi tarixan jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishiga qarab takomillashib bordi.

An'anaviy davlat boshqaruvi asosan, XIX-XX asr boshlarida shakllangan bo'lsa-da, yuqoridagi qadimgi davr va o'rta asrlardagi boshqaruv ham ushbu uslubga xos deb hisoblayman, sababi ushbu yondashuvda hukumat markazida davlat boshlig'i turgan, barcha qaror, buyruqlar u tomonidan chiqarilgan, va rahbarning so'zi yakuniy hisoblangan, qattiq iyerarxik, ya'ni vertikal bo'ysunish asosida boshqarilgan. Ushbu modelda fuqaroning roli asosan "buyruqni qabul qiluvchi" sifatida ko'rilgan va u xizmatdan qoniqdimi-yo'qmi hisobga olinmagan. Bundan tashqari, rahbar va ijrochilar o'rtasidagi masofa ancha katta bo'lganligi

sababli, oddiy xodimlar tashabbus ko'rsatishdan qo'rqqan. Oqibatda yangilik kiritish, tezkor qaror qabul qilish qiyinlashgan. Ushbu modelning eng mashhur vakili nemis olimi Maks Veberdir. U davlat boshqaruvini byurokratiya deb atagan. Veberning fikricha, ushbu tizimda har bir xodimning lavozimi, huquq va majburiyatlari aniq ko'rsatiladi, natijada davlat tartibli va adolatli boshqariladi. Ammo an'anaviy davlat boshqaruvining eng katta kamchiligi moslashuvchanlikning yo'qligi, ya'ni yangiliklarni tez qabul qilish qobiliyatining pastligi edi. To'g'ri, an'anaviy boshqaruv tizimi o'z davrida foydali bo'lgan – davlat markazlashgan, tartib va qonunlarning qat'iyligi ta'minlangan, ammo XX asr oxiriga kelib, dunyo o'zgardi: yangi texnologiyalar paydo bo'ldi, fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy ongi o'zgardi, davlatdan tez va sifatli xizmat kutadigan yangi jamiyat shakllandi, oqibatda, endi yangi yondashuv bilan davlatni boshqarish talabi yuzaga kelgan.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab G'arb mamlakatlarida davlat ham xususiy boshqaruv singari samarador ishlashi kerakligi haqidagi yangicha uslubdagi boshqaruv g'oyasi shakllandi. Bu modelni D.Osborne va T.Gaeblerlar "Reinventing Government" asarida keng targ'ib qilgan. Bu yondashuvning asosiy maqsadi byurokratiya, qog'ozbozlikni kamaytirib, asosan sifat va natijaga e'tibor qaratish edi. Bu yondashuvda fuqarolar "buyruq oluvchilar" pozitsiyasida emas, balki endi "mijoz" sifatida ko'riladi. Endi davlat faqatgina buyruq beruvchi emas, balki xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga aylanadi, desak ham bo'ladi, va oxirida davlat xizmatlari bozordagi kompaniyalar singari o'z faoliyatini baholaydi. Misol uchun, iqtisodiy sohada, soliqda, pasport yoki tibbiy xizmatni ko'rsatishda shaffoflikni ta'minlaydi va fuqarolarga qulayliklar va sifatli xizmat ko'rsatilishini kafolatlaydi. Bundan tashqari, XXI asr boshlarida BMT va Jahon Banki tomonidan "Good Governance" konsepsiyasi ham ilgari surilgan va bu yangi modelni to'ldirishga xizmat qildi. Masalan, bu yondashuv inson huquqlari, demokratik qadriyatlar va fuqarolik jamiyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, qonun ustuvorligi, korrupsiyaga qarshi kurash, fuqarolar ishtirokini rag'batlantirish hamda javobgarlik va natijadorlikni oshirish kabi tamoyillarga tayanadi. Shuningdek, XXI asrda davlat boshqaruvida e-hukumat tushunchasi paydo bo'ldi va endi davlat axborot va zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt, "Big data" orqali boshqarila boshlandi. Masalan, Singapur, Estoniya, Janubiy Koreya singari davlatlar raqamli transformatsiya orqali davlat boshqaruvida yuqori natijalarga erishgan. Xususan, Singapur endi mustaqillikka erishganida juda ham korrupsiyalashgan, iqtisodiyot va ta'lim tizimi qoloq holatda edi. Ammo Li Kuan Yuning tashabbusi bilan dastlab korrupsiyaga qarshi kurash boshlanadi, aybdorlar og'ir jazolanadi. "Qachonki hokimiyat xalq ishonchini oqlash uchun emas, shaxsiy boyluk orttirish maqsadida faoliyat yurita boshlasa, bu axloq muammosi hisoblanadi. Uzoq vaqt mavjud bo'lishini istagan jamiyat halollik prinsipiga amal qilishi lozim, aks holda millat ildizi bilan quriydi" deya ta'kidlagan Li Kuan Yu Singapur xalqiga qilgan murojaatida[5]. Ma'lumot uchun, Transparency International tomonidan 2024-yil uchun e'lon qilingan Korrupsiyani qabul qilish indeksi bo'yicha 84 ball bilan 3-o'rinni egallagan. Ketma-ket 7 yildan buyon Daniya va Finlandiya esa peshqadam hisoblandi. (O'zbekiston 32 ball bilan 121-o'rinni egallagan)[6]. Yuqorida aytganimdek, korrupsiyaga qarshi kurash ham davlat boshqaruvining zamonaviy yondashuvida asosiy o'rinda turadi.

Endi O'zbekistonning davlat boshqaruvi evolyutsiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasidan Dilfuza Raximovaning fikriga ko'ra, 2017-2021-yillar oralig'ida 30dan ortiq konsepsiya va strategiyalar qabul qilingan. Xususan, mustaqillikka erishganimizdan so'ng, parlament va siyosiy

partiyalarning rolini oshirish va mustahkamlash, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, shuningdek, sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga qaratilgan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini qabul qilish bilan bog'liq o'zgarishlar ayniqsa sezilarli bo'ldi. Tubdan ma'muriy islohot o'tkazilib, davlat va xo'jalik boshqaruvi tuzilmalari modernizatsiya qilindi va yangilandi. Jumladan, eng muhim qadamlardan biri 2018-yil "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bo'ldi. Bundan tashqari, so'nggi yillarda ijro etuvchi organlarda ayollar vakillik ko'rsatkichlari ham 3,4 % dan 16 % gacha – deyarli 5 barobar oshdi.

2022-yil "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilingan bo'lib, Farmonga ko'ra, davlat organlarining sohaga oid bo'lmagan vazifalarini qisqartirish va faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ularning tuzilmasi o'rtacha **15 foizga** maqbullashtirildi, shuningdek, 26 ta davlat organlari va tashkilotlarida **40 ta** rahbar o'rinbosarlari lavozimlari qisqartirildi. Hozirgi kunda vazirliklar soni **25 tadan 21taga** qisqargan.

Davlat organlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish hisobidan byurokratik to'siqlarni qisqartirish va aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini yaxshilash maqsadida **30 ga yaqin** turdagi litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi, **70 dan ziyod** davlat xizmatlari soddalashtirildi, davlat tashkilotlari tomonidan **60 dan ortiq** hujjatlarni talab qilish bekor qilindi[7]. Shuningdek, hozirda O'zbekistonning keyingi 10-15 yil ichida rivojlangan **50ta** davlatlar qatoriga kirishni rejalashtirgan va shu maqsadga erishish uchun **"O'zbekiston – 2030" strategiyasi** qabul qilindi. Strategiyaning asosiy g'oyalari:

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali **daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan** o'rin olish;
- **aholi talablariga va xalqaro standartlarga** to'liq javob beradigan **ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya** tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun **qulay ekologik sharoitlarni** yaratish;
- xalq xizmatidagi **adolatli va zamonaviy** davlatni barpo etish;
- mamlakatning **suvereniteti va xavfsizligini** kafolatli ta'minlashdan iborat qilib belgilandi[8].

Shuningdek, sun'iy intellekt barcha sohalarga kirib kelayotganligi sababli **"Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori **2024-yilda** qabul qilindi. Bu orqali **"Raqamli O'zbekiston – 2030"** strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarining ijrosini ta'minlash, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishga erishish maqsad qilib olindi. Natijada:

- sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar **hajmini 1,5 milliard AQSH dollariga** yetkazish;
- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushini **10 %ga** yetkazish;
- sun'iy intellekt yo'nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini **10** taga yetkazish hamda yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish;

➤ Hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida (**Government AI Readiness Index**) O'zbekiston Respublikasining birinchi **50 ta** o'rindagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish kabi vazifalar belgilandi[9].

Ma'lumot uchun, Jahon banki ekspertlar **2021-yil** uchun yaxshilangan davlat boshqaruvi ko'rsatkichlarini (**World Governance Indicators, WGI**) e'lon qildi va O'zbekistonda davlat boshqaruvi samaradorligi darajasi **44,7 %** ni tashkil etdi. **Singapur esa 100%** natijani ko'rsatdi[10].

Xulosa. Davlat boshqaruvi – bu o'zgarmas tizim emas, balki doimo rivojlanib boradigan jarayon. Har bir tarixiy davr o'zining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga mos boshqaruv modelini talab etgan. Shu bois, an'anaviy yondashuv davlat hokimiyatining markazlashuvi, tartib-intizom, qonuniylik va iyerarxik tizimni ta'minlagan bo'lsa, zamonaviy yondashuv esa tezkorlik, xizmat sifati, ochiqlik, fuqarolarga yaqinlik va raqamli texnologiyalarni ustuvor qiladi. Bugungi kunda davlat boshqaruvi samarador bo'lishi uchun faqatgina "eski tizimni tugatib, yangisini joriy etish" yetarli emas. Aksincha, eski boshqaruv modelidan xulosa chiqarib, mavjud muammo va kamchiliklarning asosiy sabab va ildizlarini aniqlab, ularni bartaraf etishga harakat qilish kerak. **Masalan**, O'zbekistonning davlat boshqaruvidagi asosiy muammolardan biri mahalliy ijro hokimiyatining iqtisodiy jihatdan ma'lum darajada mustaqil emasligi. Agar hokimliklarga nomarkazlashtirish siyosatiga ruxsat berishganda edi, masalan iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishda, barcha hokimliklar o'zlarining geografik xususiyatlari, iqtisodiy sharoit va fuqarolarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda muhim islohotlar qilishardi va infratuzilma obyektlarini talabga mos ravishda qurishardi.

Ikkinchidan, hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga zid bo'lgan, ham ijro hokimiyatida, ham Senatda faoliyat yurituvchi davlat xizmatchilarining vakolatlarini (kompetensiyasini) aniq belgilab olish kerak.

Uchinchidan, 65 senatordan iborat senat faoliyatini qayta isloh qilish, yoki umuman bekor qilish tartibi haqida o'ylab ko'rish kerak. Chunki unitar davlatlarga asosan, bir palatali parlament qulay hisoblanadi, bu birinchidan, ham davlat budjeti mablag'larini va boshqa resurslarni tejasa, 2-tomondan, yagona palata bo'lganligi uchun qonunlar tez muhokamaga qo'yilib, tez qaror qabul qilinadi, shuningdek, samaradorlik ham ancha oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. "Adolat", 2018. – 528 bet.

Раяиов Ф.М. Проблемы теории государства и права (юриспруденция). – М., «Право и государство», 2003, - 83-bet.

Davlat va jamiyat boshqaruvining huquqiy asoslari [Matn] / Erkin Xojiyev. – Toshkent: Yangi kitob, 2017. – 256 b.

Public Administration. Understanding Management, Politics, and Law in public sector. Ninth edition.

<https://kun.uz/news/2021/06/02/uchinchi-dunyo-mamlakatidan-taraqqiyotning-eng-yuksak-darajasigacha-singapur-mojizasi-haqida?q=%2Fnews%2F2021%2F06%2F02%2Fuchinchi-dunyo-mamlakatidan-taraqqiyotning-eng-yuksak-darajasigacha-singapur-mojizasi-haqida>

<https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/11/transparency-international/>

<https://lex.uz/docs/-6324756>

https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-togrisida_519159

<https://lex.uz/docs/-7158604>

<https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/05/government/>



INNOVATIVE
ACADEMY